

## LINGVOKULTUROLOGIYA: ASOSIY TUSHUNCHALAR

*Pazeledinova*

*Sayyora Tursinboy qizi*

*Andijon davlat universiteti*

*Filologiya fakulteti*

*III bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada lingvokulturologik birliklar: frazeologizmlar, o'xshatishlar va metaforalar haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** til, madaniyat, til birliklari, lingvomadaniy birliklar, ramz, mifologema, stereotip, lakuna, frazeologizmlar, o'xshatishlar, individual o'xshatish, turg'un o'xshatishlar, metaforalar.

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o'ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o'rganish lingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir<sup>1</sup>.

Mazkur sohaning obyektini til va madaniyat, predmeti esa o'zida madaniy semantikani namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi<sup>2</sup>.

Bunday til birliklari lingvomadaniy birliklar termini ostida birlashadi. *Ramz, mifologema, stereotip, lakuna, frazeologizm, o'xshatish, metaforalar* eng asosiy lingvomadaniy birliklar sanaladi.

Ramz – bu tashqi dunyoning turli madaniyat vakillari ichki dunyosi, ongi, tafakkuri va ruhidagi aksidir. Har bir shaxs, har qanday madaniyat vakili dunyoni turlicha anglaydi. Bu dunyoni anglash jarayoni ramzlar, timsollar orqali amalga oshadi. *Bayroq* – bu davlat ramzi. Bayroqdagi har bir detal o'zining ramziy xususiyatiga ega:

Bayroqdagi *moviy rang* - tiriklik mazmunini ifodalovchi mangu osmon va obi-hayot ramzi.

*Oq rang* - tinchlik ramzi. Oq rang turli madaniyatlarda poklik, beg'uborlik, soflik timsolidir.

*Yashil rang* - tabiat ramzi. Navqironlik, umid, shodlik timsoli.

Qizil chiziq - vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlarini anglatadi.

*Yarim oy tasviri* - mustaqilligimiz ramzi.

Bayroqdagi *12 yulduz* - o'zbek xalqi madaniyatining qadimiyligi, o'z tuprog'ida saodatga intilish ramzi.

Mifologema - mifning bosh qahramonlari, muhim personajlari, ma'lum obrazlari, ayrim sujetlari, ko'rinishlari.

Frazeologizmlarda butun boshli mif emas, balki mifologemalar o'rin oladi. Mifologemalar miflarni ma'lum darajada o'zida aks ettiradi: *Alpomish, hayot daraxti, Bog'i Eram*.

Stereotip – muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan, sxemalashgan, favqulodda barqaror obrazi, turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o'ziga xosligi. Stereotiplar tilshunoslar bilan bir qatorda sotsiologlar, etnograflar, kognitologlar, psixologlarning ham o'rganish doirasida mavjud. Stereotiplar ijtimoiy, madaniy, etnomadaniy va h.k. ga bo'linadi. Etnomadaniy stereotiplar biron bir xalqqa mos bo'lgan umumiy xarakterni bildiradi. Masalan, ruslar tavakkalchiligi bilan, xitoyliklar sertakallufligi bilan, nemislar tartiblilik bilan, turklar hissiyotlilik bilan, o'zbeklar mehmondo'stligi bilan boshqa bir xalqdan ajralib turadi.

Lakuna (lot. lacuna "bo'shliq, chuqurlik, cho'nqir joy"; frans. lakune "bo'shliq, bo'sh joy") - biron xalqning maishiy, madaniy, ijtimoiy hayoti uchun xarakterli va boshqa xalq uchun begona bo'lgan, boshqa tilda aniq muqobili bo'lmagan soz' va so'z birikmalari. Bir tildagi so'z boshqa tilda muqobili topa olmaganida har doim lakuna hodisasi yuzaga keladi. Bu maishiy hayot o'zaro qiyoslanganda yaqqol namoyon bo'ladi. O'zbek madaniyatining belgilarini quyidagilar orqali ko'rish mumkin: palov, belbog', tancha, do'ppi, yaktak. Qadimgi

<sup>1</sup> Сабитова З.К. Лингвокультураология: учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 10.

<sup>2</sup> Сабитова З.К. Кўрсатилган манба. – Б. 9.

o'zbek xonadonlarida uchraydigan tancha - isitish vositasi tushunchasi o'rnida koreys xalqida o'ndol - uylardagi pol osti isitish vositasi tushunchasi ishlatiladi.

Frazeologizm – turg'un birikmalarning obrazli, ko'chma ma'noga ega turi bo'lib, til egasining dunyoni, hodisalarni o'ziga xos ko'rishini namoyon etadi. Frazeologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o'z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi.

V.A. Maslova frazeologizmlarni tahlil qilib, ular haqida quyidagi gipotezani ilgari suradi:

1. Frazeologizmlarning aksariyatida aniqlanishi lozim bo'lgan milliy madaniyatning "izi" mavjud.
2. Frazeologik birliklarning ichki shaklida obyektiv olamning u yoki bu hodisalarini obrazli tasavvuri bo'lgan madaniy informatsiya saqlanadi va u frazeologizmga madaniy-milliy bo'yoq beradi.
3. Madaniy-milliy o'ziga xoslikni aniqlashda madaniy-milliy konnotatsiyani ochish juda muhimdir<sup>3</sup>.

Har bir tilning frazeologizmlarida xalq hayotiga mansub ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalar, axloqiy va ma'naviy-madaniy me'yorlar, diniy tasavvurlar, milliy an'ana va urf-odatlar, madaniy stereotiplar va arxetiplar o'z aksini topadi. Ular avloddan avlodga uzatiladi.

O'zbek xalqining frazeologik birliklari juda boy va xilma-xildir.

Quyida O'. Hoshimov asarlaridagi frazeologik birliklarni ko'rib chiqamiz:

*1. Motor tovushi gurillab quloqni qomatga keltirdi.*

*2. Voy ko'nglingning ko'chasidan o'rgilay!*

*3. Chuchvarani xom sanabsan, Oqsoqol!*

*4. Dard ustiga chipqon degandek, Kimsandan na xat bor, na xabar.*

*5. -Voy-bo', jahlingiz burningizning uchida turadi-ya!*

"Chuchvarani xom sanabsan, Oqsoqol!" - gapidagi chuchvarani xom sanamoq iborasi *reja qilingan ishning kutilganidek bo'lmagandagi* holatida ishlatiladi. Tugilganda sanalgan chuchvara pishganida xomligidagidek chiqmaydi. Sababi suvga tushganda ochilib ketishi mumkin.

Dard ustiga chipqon iborasi *dard ustiga dard, qayg'u-alam ustiga yanada og'irrog'ining kelishi holatida* ishlatiladi. Chipqon - bu yaraning atrofida to'plangan yallig'lanish. O'zi yara bor edi, buning ustiga chipqonning chiqishi yanada yomon holat.

O'xshatishlar – har bir xalqning lingvomadaniy boyligi bo'lib, ular milliy dunyoqarash, dunyodagi predmet, hodisa harakatlarni milliy tasavvurlarga ko'ra taqqoslash, qiyoslashdir. Masalan, ayollarning tik qomatiga sarvdek, alifdek, niholdek, adil kabi o'xshatishlari qo'llanadi.

Professor N. Mahmudov o'zbek tilidagi o'xshatishlarni to'rt unsurga ajratib, ularni o'xshatish subyekti, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi va o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi deb nomlaydi. "...o'xshatishlar o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo'ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'xshatishlarning ikki turi, ya'ni: 1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar farqlanadi"<sup>4</sup>.

Masalan, Oybek she'riyati o'ziga xos o'xshatishlarga boyligi bilan ajralib turadi. Quyidagi misralarda ham go'zal o'xshatishlar qo'llagan:

*Men ipak qurti kabi*

*Xayolimga o'raldim.*

*Tuyg'ularim girdobi*

*Orasida yo'qoldim.*

Bu she'ri orqali shoir barcha uchun ma'lum bo'lgan ipak qurtini tanlaydi. Ma'lum bo'lganidek, ipak qurti ipak chiqarib o'zini o'raydi. Natijada o'zi hosil qilingan oq pillaning ichida qoladi. Shoir o'zini ipak qurtiga qiyoslaydi. Endi Oybek pillaga emas, o'zining pilladay oppoq xayollariga o'raladi va tuyg'ulari girdobida pinhon bo'ladi.

Turli lingvomadaniyatlarda muayyan bir narsaning, masalan, hayvon nomining turg'un o'xshatish etaloni sifatida qo'llanishini kuzatish mumkin. Masalan, aksariyat tillarda *tulki* ayyorlik, aldoqchilik, yolg'onchilik

<sup>3</sup> Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – С. 82.

<sup>4</sup> Махмудов Н., Худойберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли лугати. – Ташкент: Маънавият, 2013. – Б. 5.

ramzi, kiyik go'zallik, sezgirlik, chaqqonlik ramzi, etaloni sifatida faol ishlatiladi: tulkiday аyyor, хитрый как лиса (ruscha), as false as fox (inglizcha), you chorom (koreyscha). Yoki o'zbek tilining o'ziga xos o'xshatishlari sifatida qo'ydek yuvosh, musichaday beozor, bo'riday och, eshakday befarosat, arvochday ozg'in, moldek ovqat yeydi va h.k. ni ko'rsatish mumkin.

Lingvokulturologiyani ko'proq turg'un birliklar qiziqtiradi. Jumladan, "turg'un o'xshatishlar milliy ong jumbog'ini yechishga imkon beradigan yorqin obrazli vositalardan biri hisoblanadi", "dunyoni o'ziga xos milliy tarzda ko'rish o'xshatish semantikasida aks etadi"<sup>5</sup>.

Metafora (yun. "metaphora" – ko'chirish) – hosila ma'no yuzaga kelishi, u biron predmet yoki holat nomini boshqa predmetga yoki holatga o'xshashligini e'tiborga olib ko'chirishdir: vaqt-bu pul, dard chekmoq, qayg'u ichmoq.

Gegel "o'z ma'nosida qo'llaniladigan so'z o'z-o'zidan tushunarli ifodadir, metafora esa boshqacha ifodadir"<sup>6</sup>, - deb yozgan edi. Qator adabiyotlarda metaforaning yashirin o'xshatish ekanligi qayd qilinadi. Binobarin, Aristotelning fikricha, o'xshatish ham metaforadir, chunki ular o'rtasida arzimagan farqlar mavjud, xolos. Masalan, *u sherday tashlandi* ifodasida o'xshatish bor, agar ifoda *sher tashlandi* tarzida o'zgartirilsa, metafora yuzaga keladi<sup>7</sup>.

Quyida metaforalardan namunalar ko'rib o'tamiz:

1. Samoviy ot pashshalari tunni bezatdi (Kechasi yulduzlar porlab turardi).
2. Hayot g'unchalari (Yoshlik).
3. Sochlaridagi qor uning tarixi haqida gapirdi (Sochlaridagi oq rang uning hayoti haqida gapirdi).
4. Uning po'latdan asablari bor.
5. Hayol bu uyning aqldan ozgan ayolidir.

Hayot g'unchalari deganda yoshlik tushunilishi bu qadimdan mavjud. Chunki hayotni gulzor deb atasak, undagi g'unchalar gulzorning yosh, navnihollaridir.

Sochlaridagi qor – oq rang uning hayot yo'li, mashaqqatlari, sertashvish kunlaridan xabar beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, lingvomadaniy birliklar: o'xshatishlar, metaforalar, frazeologik birliklar mavjud bo'lgan olamning lisoniy manzarasi ilmiy talqinini yaratishda eng muhim manba hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аристотель. Риторика/ Античные риторика. – М.: МГУ, 1978. – 352с.
2. Гегель. – М., 1969. – 115с.
3. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – 208с.
4. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М., 2001. – 208с.
5. Махмудов Н., Худойберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли лугати. – Ташкент: Маънавият, 2013. – 316б.
6. Сабитова З.К. Лингвокультурология: учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – 524с.
7. Сабитова З.К. Лингвокультурология: учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – 524с.

<sup>5</sup> Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М., 2001. – С. 133-134.

<sup>6</sup> Гегель. – М., 1969. – С. 115.

<sup>7</sup> Аристотель. Риторика/ Античные риторика. – М.: МГУ, 1978. – С. 134.